

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MEDIAMADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrası mudiri,
pedagogika bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

kabrorxonovna@mail.ru.

Tel: +998933052904

Bo‘riyeva Shaxnoza Inat qizi

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

buriyevashaxnoza076@gmail.com

Tel:+998993784636

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilar o‘rtasida mediamuhitni hamda mediamadaniyatini shakllantirishning psixologik imkoniyatlari, bugungi jamiyatda kichik maktab yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning dolzarbligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlik faoliyatiga o‘rgatishning psixologik imkoniyatlari va ahamiyati, zamonaviy ta‘lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish samaradorligi haqida bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar:** pedagogika, psixologiya, o‘quv jarayoni, o‘qituvchi, o‘quv faoliyati, psixologik xususiyat, psixologik imkoniyat.*

KIRISH

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta‘lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta‘lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o‘qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. **Ta‘lim** – o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya‘ni o‘zlashtirilayotgan ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar

shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish, tanqidiy fikrlash va kreativ fikrlash, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, axborot savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda.

Interfaol metod- biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqot yoki bahs-munozarali fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Interfaollik bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida olib boriladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi-o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Bola jamiyatning a'zosi, mukammal shaxs sifatida muayyan ijtimoiy muhitda kamol topar ekan, uning butun bilish jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari va ruhiy holatlari, ongi rivojlanadi. Kuzatishlar asosida ko'pdan-ko'p taassurotlar olib, eshitib, o'qib xotirada ancha yorqin saqlab qolishga harakat qiladi.

Xotira - xuddi hissiyot kabi badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, u o'z navbatida o'zida eng zaruriy psixik jarayonni - odamning o'tgan tajribasini namoyon etadi. Jumladan, yodga olish, yodda saqlash va so'ngra shunday narsa yaratiladiki, uni o'tmish tajriba mazmuni bilan bog'lamasdan hotiraning aralashuvisiz borliqni, jumladan, badiiylikni ham idroq etib bo'lmaydi.

Iroda- ijod kuchining samarasini belgilovchi, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri hisoblanadi. Iroda mehnat faoliyatining asosiy turi sifatida amalga oshada, lekin mehnatning samarasi irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga bog'liq.

Tafakkur - ijodiy faoliyatning mukammallashtiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, tahlil qilishda idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o'ynaydi.

Kreativlik - tushunchasi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"-yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning muhokamasi ularning egallagan bilimlari evaziga, anglashilganlik xususiyatining mavjudligidan oddiy shakldan asta-sekin murakkab shaklga o'sib o'tadi. Sistemali bilimlarni egallashga o'quvchi tomonidan qiziqish uyg'onishi har qanday qiyinchiliklarni yengishga yetaklaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim doirasi kengaya borgan sari, ta'lim sub'ektlari fikrlashi qat'iy hukmlardan taxminiy hukmlarga ko'cha boshlaydilar, chunki, ular narsa va hodisalarning, xususiyat, qonuniyat va xossalarning turli jihatlariga ega ekanligini, voqelik atigi bir harakatdan, bir sababdan kelib chiqmasdan, balki ko'plab sabablar, ta'sirlar, qo'zg'ovchilar natijasida paydo bo'lishini anglab olish bosqichiga ko'tariladi. Ushbu davrda o'qituvchi tomonidan mediamadaniyatni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. 7-10 yoshda bolaning farqlash hissi juda faol bo'lgani bois, unga to'g'ri axborotlarni berishni nazorat qilmoq lozim. Chunki shu yoshda axborotni anglash qobiliyati shakllana boshlaydi. Ushbu yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanib endigina o'qishni o'rgangan, qaysi saytga kirgani va qanday muammolarga duch kelishi mumkinligini oxirigacha tushunib yetmaydilar. Multfilm va rang-barangligi bilan jalb qiluvchi o'yinlarga qiziqish bo'lgani bois, bolalar ko'p hollarda shu kabi axborotlarni izlashadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining internetdan foydalanishini ota-ona o'qituvchi yoki kattalar tomonidan doimo nazorat qilinishi zarur. O'quvchi o'zi eshitgan narsalarini, voqelik to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'ri tushuna oladi, o'zida mavjud bo'lgan axborotlarni (taassurotlarni) muayyan tartib bilan bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan (narsalarni taqqoslaydi, yaqqollashtiradi, guruhlariga ajratadi, hukm chiqaradi) o'rinli foydalanadi.

Boshlang'ich sinfda axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish o'quvchilarning kognitiv psixologiya sohasini faollashtirishga, ta'lim materiallarini muvaffaqiyatli o'rganish va aqliy rivojlanishiga xissa qo'shishi kerakligini yodda tutish kerak. Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb atash mumkin. Bola axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ma'lum bir o'quv fuksiyasini bajarishi eslab qolishiga yordam berishi kerak. Shu

bilan bir qatorda axborot xavfsizligi bo'yicha o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga oddiy va tushunarli tarzda yetkazish kerak.

Sir emaski, yurtimiz taraqqiyotida texnologiya, yosh avlodni kreativ qobiliyatini rivojlantirish, mediamadaniyatni rivojlantirish. Dars jarayonida ijodiy yondashish borasida o'zgarishlar borgan sari globallashib, uning boshqaruvchisidan yuksak mahorat egasi bo'lishni talab etmoqda. Shu sababli ko'pgina davlat hujjatlarida, shuningdek, Konstitutsiyamizning 2- bo'lim, XI bob, 42-moddasida ham ijod erkinligi xususida shunday imkoniyatlar keltirilgan: "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi." Ta'lim tizimida ham uning dasturlari, mazmuni, standartlari takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o'zgarishlar bilim olishning yangi texnologiyalari, masofaviy, loyihalangan ta'lim, zamonaviy ta'limda kredit tizimi, media ta'limini, yani shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta'limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ta'lim jarayonida qator ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib olsalarda, lekin o'tgan darslarda o'zlashtirilgan turli belgilarni qorishtirib, chalkashtirib yuboradilar. Chunki, bu yoshdagi o'quvchilarda tushunchalar tarkibiga kiruvchi narsa va hodisalar bilan, ularning belgi hamda alomatlari o'rtasida uzviy bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi. Shuningdek, ular ilmiy tushuncha bilan turmushda iste'mol qilinadigan noilmiy (mahalliy) tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqni to'la ajratib ololmaydilar. O'quvchilarga qulay zamonaviy va yetarli darajada tushuntirib berish uchun dars mavzusiga oid multemidiya, animatsiya, grafika, diafilm va vidiofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi. O'quv mashg'ulotlari davomida pedagogik jarayon o'z navbatida, o'qituvchi darsni zamonaviy tashkil etishi, takomillashtirishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, axborotlarni to'g'ri va asosli qidirib ularni tahlil qilishi o'quvchilarni muammoli vaziyatlardan chiqishga asosiysi xulosa qilishni o'rgatadi. Axborot komunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va reflektiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki zamon talablariga mos keluvchi, ma'nan yetuk, intellektual rivojlangan kadrlarni tayyorlash uchun o'qituvchi muammoning yechimiga, o'quv materialini o'rgatishga ijodiy yondashishi shart. Ularga mashg'ulotlar mazmuni, o'ziga xosligi, elastikligi, innovatsion mohiyatga egaligi, shaxsga yo'naltirilganligi, ijodiy potentsiali, shaxsning kreativ rivojlanishi uchun istiqbolni belgilashi kabilarni singdirish lozim. Buning uchun mashg'ulotlar mazmuni chuqur, jozibador, esda qoladigan va axborot komunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanib darsning qiziqarli tashkil etish muhim hisoblanadi. Mediamadaniyatni oshirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining, turli bemani o'yinlar shunga o'xshash saytlardan bilib bilmay kirib qolishlaridan saqlashga yordam beradi. O'zining kimligini, o'zligini bilgan inson ota-ona, ona vatan, vatanparvarlik degan muqaddas qadriyatlarning tub mohiyatini anglashga qodir bo'ladi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ontogenez psixologiyasi O'quv qo'llanma E.G'oziyev Toshkent "NIF MSH" 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2012. 39 b, 10-bet
3. Arapbayeva D.K., Norqulova N.T., Rustamova M.M. "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari". T.: "Navro'z 2017-y.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
5. Расулова З. (2021). Замоновий ахборот-коммуникация технологиялари ўқув жараёнларини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 349-359 бетлар.
6. Dilova N.G. (2021). Ajdodlarimiz merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 515-523 betlar.
7. Дилова Н.Г. (2021). Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 547-557 бетлар. 27. Расулова З. (2021). П
8. Ochilova G. Pedagogik mahorat asoslari. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, TDIU, 2012.
9. Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003.
10. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
11. Xoliqov A. "Pedagogik mahorat" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 y